

**IJTIMOIIY MUHIT TA'SIRIDA BOLALARNI AXLOQIIY
TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Xurramova Iroda Baxriddin qizi

Termiz Davlat Pedagogika instituti Pedagogika

yo'nalishi 4-kurs talabasi

xurramovairoda21@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Bolalarda axloqiy his-tuyg'ular, tasawurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash. Axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur, tushunchalar berilgan.

Аннотация: Статья, посвященная теме воспитания детей, и ее содержание требуют формирования и развития их личностных качеств. Воспитание нравственных чувств, воображения и благоразумия у детей. Предоставление нравственно-воспитательных знаний, развитие гуманистических и культурных ценностей рассматриваются в широком смысле.

Abstract: This article discusses the task and content of moral education of children, which involves the upbringing and development of the child's spiritual world, his consciousness, moral feelings, personal qualities. To educate moral feelings, ideas and actions in children. Providing moral knowledge performs a number of educational tasks, provides a broad idea and understanding of the moral values of human life and culture.

Kalit so'zlar: axloq, odo, tarbiyaviy qadriyat, shaxs, rivojlanish, muhit, ma'naviyat, madaniyat, ijtimoiy.

Ключевые слова: мораль, этика, образовательная ценность, личность, развитие, окружающая среда, духовность, культура, социальный аспект.

Keywords: morality, ethics, educational value, personality, development, environment, spirituality, culture, social.

Kirish

Ijtimoiy muhit bolani tarbiyalashda muhim omil sifatida inson hayotining ilk bosqichlaridanoq muhim rol o'ynaydi. Bola dunyoga kelganidan so'ng u o'zining tabiiy ehtiyojlarini qondirishga intiladi va bu ehtiyojlar faqat ijtimoiy muhit orqali ro'yobga chiqariladi. Tarbiya jarayoni esa insonning shaxs sifatida shakllanishida muhitning ta'sirini inobatga olgan holda olib boriladi. Shu bois, pedagogik va

psixologik adabiyotlarda ijtimoiy muhitning bola rivojiga ta'siri alohida e'tibor bilan o'rganiladi. Bola shaxsining rivojlanishida uch asosiy omil: nasl, muhit va tarbiya muhim deb hisoblanadi. Ulardan ijtimoiy muhit — bolaning shaxsiy tajribasini shakllantirishda vositachi rolini bajaradi. Bu muhitga oila, maktab, mahalla, ommaviy axborot vositalari, tengdoshlar guruhi, madaniy muassasalar va jamiyatdagi boshqa ijtimoiy institutlar kiradi. Har bir omil bolaning psixikasi, fe'l-atvori va ijtimoiy faolligiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy qism

Bolaning shaxsiyatining rivojlanishi turli xil faoliyatlarda tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishda eng samarali hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishini yoshdagi bolalarning jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuv bu butun hayot davomida davom etadigan doimiy jarayon. Maktabgacha bolalikda bu birinchi navbatda ijtimoiy hayot me'yorlarini o'zlashtirishdir. Ijtimoiy kompetensiya esa hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati. Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U, ayniqsa, bolalik va yoshlik davrlarida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki, shaxs tomonidan aynan bolalik davrida asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi. Bola ijtimoiylashuvida ijtimoiy muhit muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola astasekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin, asosan, oilada rivojlansa, uning keying rivojlanishi turli muhitlar maktabgacha ta'lim muassaslari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya tashkilotlari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishida yetakchi o'rinni o'z xalqining axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirish va keyinchalik umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni bilish va egallash yotadi. Ijtimoiy taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy xatti-harakatlari tajribasi kattalar bilan muloqot jarayonida shakllanadi va tengdoshlari bilan turli xil qo'shma tadbirlar va munosabatlarda mustahkamlanadi. Bolalarni o'zlarining axloqiy tajribalarini mushohada qilishlari va boyitishlariga yordam beradi; Shaxsni o'zini axloqiy tarbiyalashga zamin yaratadi. Axloqiy bilim, asosan axloqiy suhbatlar, ma'ruzalar, kechalar, turli kasb egalari bilan uchrashuvlar va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Birinchi galda bolalarni har xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati bilan tanishtirish, mashg'ulotlarda va

mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda ta'lim berish orqali amalga oshiriladi¹. Har xil bayramlar, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar adabiyoti, musiqa, o'yin materiallari, ommaviy axborot vositalari - oynayi jahon, radio va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat o'yin mashg'ulotlarida yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan axloqiy tasavvurlarni ular ongli ravishda tushunib yetishlari dastlab mashg'ulotlarda, keyinchalik o'yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, mustaqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Bolaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida Islom dini va ulamolarning asarlarida yetarlicha fikr va mulohazalar bildirilgan. Shu bilan birga bolaning rivojlanishi haqida G'arb faylasuflari ham o'zlarining qarashlarini bayon qilishgan. Quyida biz G'arb va Islom dunyosining bolaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqidagi fikrlarini keltirib o'tamiz. Bolaning shakllanishi haqida G'arb faylasuflarining fikrlari. Biologik yo'nalish – bu yo'nalish tarafdorlari odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishida tabiiy – biologik (irsiy) omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi deb biladilar. Ularning fikricha, bola ona qornidalik vaqtida avlod-ajdodlardan o'tgan tug'ma xususiyatlariga rivojlanadi. Ular tarbiya va muhitning rolini cheklab qo'yishadi. Yo'nalishning tarafdorlari Aristotel, Platon hisoblanadi. Preformizm yo'nalishi – XVI asr falsafasida vujudga kelgan bu oqim namoyandalarining fikricha, bo'lajak shaxsga tegishli barcha xususiyatlarga bola ona qornidaligidayoq ega bo'ladi. Ular tarbiya va muhitning rolini butunlay inkor etishadi. Bixeviorizm yo'nalishi – bu oqimga amerikalik pedagog va psixolog E.Torandayk asos soldi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, jumladan, ong va aqliy xususiyat ham nasldan naslga o'tadi. Bu bilan E.Torandayk tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'sirini butunlay inkor etadi va uni shaxsning xususiyatlariga ta'sir etishdan o'zini deb biladi. Insonning shakllanishida Islom dini va mutafakkirlarning fikrlari Islom dini va mutafakkirlarning asarlarida bolaning shakllanishi uchun tarbiya, irsiyat va muhit ta'siri alohida ta'kidlangan. Ijtimoiy muhit bolani tarbiyalashda muhim omil sifatida inson hayotining ilk bosqichlaridanoq muhim rol o'ynaydi. Bola dunyoga kelganidan so'ng u o'zining tabiiy ehtiyojlarini qondirishga intiladi va bu ehtiyojlar faqat ijtimoiy muhit orqali ro'yobga chiqariladi. Tarbiya jarayoni esa insonning shaxs sifatidashakllanishida muhitning ta'sirini inobatga olgan holda olib boriladi. Shu bois, pedagogik va psixologik adabiyotlarda ijtimoiy muhitning bola rivojiga ta'siri alohida e'tibor bilan o'rganiladi. Bola shaxsining rivojlanishida uch asosiy omil: nasl, muhit va tarbiya muhim deb hisoblanadi.

¹ Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida Steam Texnologiyasi Asosida O'quv Jarayonini Tashkil Etish Jarayoni As Abduqosimovna - Innovation In The Modern Education System, 2023

Pedagogika fanida ijtimoiy muhit bola tarbiyasida passiv emas, balki faol vosita sifatida talqin etiladi. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida axloqiy me'yorlar, odob-axloq qoidalari, milliy qadriyatlar va ijtimoiy rol va funksiyalarni egallaydi. Jumladan, A. Avloniyning fikricha, "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir". Bu fikr ijtimoiy muhitning bevosita yoki bilvosita bola hayotiga ta'siri naqadar chuqur ekanligini ko'rsatadi. Oila birinchi ijtimoiy muhit sifatida bolaning asosiy tarbiya maktabi hisoblanadi. Oilada bola birinchi marta muhabbat, mehr, e'tibor, intizom va mehnatga hurmat kabi ijtimoiy his-tuyg'ularni o'zlashtiradi. Ota-onaning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, oila ichidagi munosabatlar madaniyati bolaning xarakteri va dunyoqarashini shakllantiradi. Shuningdek, oilaviy iqlim bolaning o'zini tutishi, o'zaro munosabatlari va o'ziga bo'lgan ishonchiga bevosita ta'sir qiladi. Maktab esa bola ijtimoiylashuvida ikkinchi muhim ijtimoiy muhit bo'lib, u bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga axloqiy-me'yoriy qadriyatlarni ham shakllantiradi. O'qituvchining shaxsiy namuna bo'lishi, sinfdagi muhit, ta'lim dasturlarining tarbiyaviy yo'nalishi bolaning ongli va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi. Maktab nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy moslashuv, muloqot qilish, muammolarni hal etish, guruhda ishlash kabi ijtimoi kompetensiyalarni rivojlantirishga zamin yaratadi. Mahalla va jamiyat ham bolaning ijtimoiy muhit sifatidagi shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Mahallada o'tkaziladigan turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, urf-odat va an'analar bilan tanishish, jamiyatdagi ijtimoiy vazifalarga jalb etilish bolaning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi. Ayniqsa, ijtimoiy faollikni shakllantirish, kattalarga hurmat, kichiklarga e'tibor kabi ijtimoiy qadriyatlarni anglashda mahalla muhitining ahamiyati beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasida ijtimoiy muhitning roli beqiyosdir. Ijtimoiy muhit tarbiyaning manbai, yo'nalishi va ta'sir doirasini belgilaydi. Tarbiya samaradorligi ko'p jihatdan ijtimoiy muhitning sog'lomligi, ijobiy qadriyatlar bilan boyitilganligiga bog'liq. Shu bois, pedagogik amaliyotda bola bilan ishlashda uning yashayotgan muhitini chuqur tahlil qilish va u orqali ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga intilish muhimdir. Ijtimoiy muhitning bolaning tarbiyasiga ta'siri ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin. Agar muhitda mehr, o'zaro hurmat, odob, axloqiy qadriyatlar ustuvor bo'lsa, bola bu xususiyatlarni o'zlashtiradi. Aksincha, befarqlik, zo'ravonlik, e'tiborsizlik, madaniyatsizlik hukmron bo'lgan muhitda tarbiyalangan bolada salbiy fazilatlar shakllanishi mumkin.

Foydalanilgan aadabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2022.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Abdullayeva N. Axloqiy tarbiya asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Mahkamova G. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent, 2021.
5. G'afforova T. Shaxs rivojida ijtimoiy muhitning o'rni. — “Pedagogika” jurnali, №3, 2020
6. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma'naviyat”. 2019 y.- 688 b